


181

30.11
Ch 52

Adilov P., Ismatullayev R., Xalimov M.,
Tashimov N.

CHIZMACHILIK

(ARXITEKTURA QURILISH CHIZMACHILIGI)



Fazlikov - 2011

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**CHIZMACHILIK
(ARXITEKTURA QURILISH CHIZMACHILIGI)**

Toshkent-2012

ANNOTATSIYA

Ushbu metodik qo'llanma 5140700 «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» yo'nali shida ta'lim oluvchi talabalarga mo'ljallangan bo'lib, unda «Arxitektura qurilish chizmachiligi» dan talabalar bajaradigan individual grafik ishlar masalalari keltirilgan. Har bir bajariladigan grafik ish uchun namunaviy yechimlar, matn va yashshlar ko'rinishida berilgan.

Metodik qo'llanmadan arxitektura qurilish chizmachiligi o'qitiladigan barcha OTM larda grafik vazifalar yoki mustaqil ishlar bajarish uchun ham foydalanish mumkin.

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU "Chizmachilik va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi professori v/b, t.f.n..

Rixsiboyev T.

Toshkent temir yo'l muhandislari instituti
«Informatika va muhandislik grafikasi» kafedrasi
dotsenti, t.f.n..

I. Mamurov

Tuzuvchilar:

Adilov P. - Nizomiy nomidagi TDPU "Chizmachilik va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti, t.f.n..

Ismatullayev R. - Nizomiy nomidagi TDPU "Chizmachilik va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi professri, t.f.n..

Xalimov M. - Nizomiy nomidagi TDPU "Chizmachilik va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Tashimov N.E. - Nizomiy nomidagi TDPU "Chizmachilik va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi.

Mazkur metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU ning 2012 yil fevraldag'i Ilmiy kengashida № - 6 raqamli qaror bilan nashrga tavsiya etilgan.

So‘z boshi

Mustaqil mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tib, jadal rivojlanayotgan bir davrda yangicha fikrlaidigan, ijod qiladigan o‘quvchilarni tarbiyalash asosiy muammollardan biridir, shuning uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o‘quv adabiyotlarni yaratish zamon talabi. Shuningdek «Arxitektura qurilish chizmachiligi» fanidan grafik vazifalar bajarish uchun metodik qo‘llanmalarini yaratish ham muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamizning barcha xududlarida ko‘plab qurilishlar olib borilmoqda. Yangi turli ko‘rinishdagi binolar qatorida ajdodlarimiz barpo etgan tarixiy yodgorliklar ta‘mirlanmoqda, mutloq buzilib ketganlari qaytadan tiklanmoqda. Bunday qurilishlar ko‘lami yangi er osti metrolarimiz, sport komplekslari, ko‘priklar, ma‘muriy binolar, bozor, akademik litsey, kollej va fuqorolar yashash uylari kabilar nafaqat shaxarlarimizning ko‘rki, balki dunyo miqqosida Respublikamizning rivojlanayotgan davlatlar qatoriga qo‘shilishiga kafolat beradigan omillardan biri hisoblanadi.

Qurilish madaniyati bizning xududimizda juda qadimdan boshlangan. Arxeologik qazilmalar natijalariga asoslangan holda miloddan avvalroq mustahkam qal‘a, shaharlar qurilgan, turli kanallardan suvg‘orish orqali yuqori hosil olinganligi guvoxi bo‘lamiz.

Hozirda ajdodlarimizdan qolgan qurilish madaniyati asosida mustahkam va ko‘rkam, o‘ziga xos takrorlanmaydigan jahon standardlariga mos qurilish normalari barpo etildi. Respublikamizda sanoat va uy-joy qurilishining kun sayin o‘sib borishi qurilishlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Mazkur metodik qo‘llanma «Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi» yo‘nalishi o‘quv rejasida keltirilgan «Chizmachilik» fanining, «Arxitektura qurilish chizmachiligi» bo‘limi bo‘yicha individual grafik ishlari bajarish uchun mo‘ljallangan.

Metodik qo‘llanmada «Arxitektura qurilish chizmachiligi» ning barcha mavzulari bo‘yicha grafik vazifalar tuzilgan. Unda qurilish chizmalari, fasad, plan va binoning qirqimlari, loyihalash bosqichlari, ish chizmalarini taxt qilish, bosh

plan, masshtab, shartli belgililar, arxitektura - qurilish ishlarida temir-beton yirik panelli va blokli, yog'och va temir konstruksiyalarni, sanitar-texnik chizmalarini chizish va o'qishni o'rganish mo'ljallangan.

Har bir mavzular bo'yicha bajariladigan grafik ishlar uchun 24 tadan variantlar keltirilgan. Vazifalarni bajarish uchun masalani yechish ketma-ketligiga (yasash algoritmi) doir matn va masalani grafik yechimi berilgan.

I. BOB. QURILISH CHIZMALARI TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

§1.1. «Arxitektura qurilish chizmachiligi» ning mazmuni va tuzilishi

Qurilish chizmachiligini o'rganishdan maqsad talabalarning chizmachilik bo'yicha bilim doirasini kengaytirish, memor va loyixachilar kasbi bilan tanishtirish, qurilish chizmalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari xaqida tushunchalar berish shuningdek bu chizmalarni bajarish va o'qish ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir.

Bino tiplari

Binolar ularning qaysi yo'nalish bo'yicha tayinlanishiga qarab, fuqarolik, sanoat va qishloq xo'jalik binolariga bo'linadi:

Fuqarolik binolari kishilarning maishiy va jamoat ehtiyojlari uchun quriladi. Ular aholi yashaydigan turar joylar va jamoat (maktablar, kinoteatrлar, kasalxonalar) binolariga bo'linadi.

Sanoat binolari ishlab chiqarish qurilmalarini joylashtirish va mehnat operatsiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, sanoat va transport ehtiyojlari (fabrika, zavodlar, elektrostansiya, qozonxonalar, temiryo'l depolari, garajlar) uchun foydalaniлади.

Qishloq xo'jalik binolari qishloq xo'jaligi ehtiyojlari (hayvonlar, qushlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari, zaharli ximikatlar va o'g'itlar, qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlash) uchun foydalaniлади.

Bundan tashqari agar binioning balandligi - to'qqiz va undan oshiq qavatlarga ega bo'lsa, uni qavatlari oshirilgan baland bino, balandligi uch qavatdan yuqori bo'lsa – ko'p qavatlari va qavatlar soni uch va undan kam bo'lsa kam qavatli bino deb atashadi.

Binoning bitta sathda joylashgan xonalarini **qavat** deb atashadi. Binoning qavatlari bir-biridan quyidagicha farqlanadi:

Er usti qavatlari – polning belgisi er satxining rejalashtirilgan belgisidan pastda joylashmagan xonalar;

Sokol qavati – polining belgisi arning rejalashtirilgan belgisidan pastda joylashib, xona balandligining yarmidan baland bo'limgan qavat;

Yerostii qavati — polining belgisi er satxining rejadagi belgisidan pastda joylashib, balandligi xona balandligining yarmidan kuproq bo'lgan xona;

Mansard qavat — chordoq ichida joylashgan qavat.

Texnik qavat — muhandislik jihozlari va kommunikatsiya vositalari joylashgan qavat. Texnik qavatlar binoning pastki yoki o'rta qismida joylashishi mumkin.

Tashqi devorlar qanday materiallardan qurilishiga ko'ra g'ishtli yoki yog'ochdan qurilgan binolar bo'lishi mumkin. Tabiiy yoki sun'iy toshlardan qurilgan binolar *gishtli*; devorlari yog'ochdan qurilgan bino *yog'och konstruksiysiyl bino* deb ataladi.

Har qanday bino yoki inshoatni qurish loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha-smeta hujjatlarning tarkibi va mazmuni shu ko'rsatmalari asosida aniqlanadi. Loyiha buyurtmachisi shartnoma qoidalariga binoan loyihalash tashkilotlari bilan shartnoma tuzadi.

Loyiha topshirig'ini bosh loyihachi ishtirokida buyurtmachining o'zi tuzadi. Loyihalashning birinchi bosqichida qurilishning smeta narx qurilish maydoni tiklanadi.

Ikkinci bosqichda tasdiqlangan loyihaga asoslanib ish hujjatlari, ishchi loyihasi esa tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asosnomalar va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar asosida ishlab chiqiladi. Ish loyihasi ekspertizalash va qurilish-montaj ishlari uchun foydalilanadi. Fuqarolik, sanoat, qishloq xo'jalik binolari va inshootlarini loyihalashda, ko'p marta quriladigan ommaviy qurilishlarda tipaviy loyihalardan foydalilanadi. Tipaviy loyiha tarkibiga qurilish-montaj ishlari uchun zarur bo'lgan barcha ish chizmlari, tushuntirish xati va smeta kiradi. Tipaviy loyihalar asosida quriladigan bino va inshootlar arzon tushadi.


Binolar hamda inshootlarni loyihalash, qurish tegishli normativlar va qoidalar asosida olib boriladi.

§1.2. Binoning fasadi, plani va qirqimlari

Qurilish chizmalarida binoning tasviri quyidagicha nomlanadi. Binoning olddan (ko'cha tomondan) ko'rinishi *bosh fasad*, hovli tomondan ko'rinishi *hovli fasad*, o'ng yoki chap tomondan ko'rinishi *yon fasad*, binoning ustidan ko'rinishini *tomning plani* deb ataladi. Binoning fasadlari va tomining planiga qarab faqat uning tashqi ko'rinishi to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Binoning o'lchamlari, qurilish konstruksiyalarining turlari, sanitariya-texnika jihozlarining joylashishi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish uchun bino plani va qirqimlari kerak bo'ladi.

Binoning plani deb. uning gorizontal kesuvchi tekislik bilan deraza va eshik o'rirlari bo'ylab qirqilgan tasviriga aytildi. Agar binoning deraza va eshik o'rirlari bo'ylab gorizontal kesuvchi tekislik bilan fikran qirqib ostki qismini gorizontal proyeksiya tekisligiga proyeksiyalansa, binoning plan deb ataluvchi tasviri hosil bo'ladi (1- rasm).

Ko'p qavatli binolaming har bir qavati uchun alohida plan kerak bo'ladi. Ular ham yuqorida aytib o'tilganidek hosil qilinadi.



1- rasm. Qavat planining hosil bo'lishi.


Xuddi shunday usul bilan birinchi qavat yopmasining plan balkalari hosil qilinadi. Bunda gorizontal kesuvchi tekislik shu yopmaning balkasidan o'tkaziladi. Binolarning konstruksiyasi, balandligi, pol sathi belgisi, maydonlar, deraza va

eshiklar sonini aniqlash uchun qirqimlar deb ataluvchi tasvirlardan foydalilanadi. Bunday tasvir vertikal kesuvchi tekisliklar bilan hosil qilinadi. Agar binoni vertikal proyeksiya tekisligi bilan fikran kesib, uning chap tomonini tashlab yuborilgandan keyin qolgan qismi profil proyeksiya tekisligiga to'g'ri burchakli proyeksiyalansa, binoning **qirqim** deb ataluvchi tasviri hosil bo'ladi (2- rasm).


Kesuvchi tekisliklarning holatiga ko'ra bo'ylama va ko'ndalang qirqimlar bo'lishi mumkin. Birinchi holda kesuvchi tekislik binoning uzunligi, ikkinchi holda esa ko'ndalang qismi bo'ylab o'tadi.

Qirqimlar uchun kesuvchi tekisliklar holati harflar bilan ko'rsatilishi mumkin. Bundan tashqari qirqimlar o'ziga tegishli holda yozuvlar bilan ifodalanishi mumkin.

Planlar, qirqimlar va fasadlar tasvirlangan qurilish chizmalari umumiy *arxitektura qurilish chizmalari* deb ataladi. Ular binoning tashqi va ichki tuzilishi to'grisida umumiy tushuncha beradi. Hamma chiziqlar standart talabalariga asosan tegishli qalilikda chiziladi va o'lchamlari qo'yiladi. Binoning plani to'g'ri chizilganligiga ishonch hosil qilingandan keyin asosiy tutash chiziqlar bilan devor va to'siqlar kesimi, ingichka tutash chiziq bilan deraza o'rnlari, sanitariya-texnika qurilmalari, zinalar, eshiklarning ochilgan holati chiqarish chiziqlari va boshqalar ustidan qalam yurgizib chiqiladi.



2- rasm. Bino qirqimini hosil qilish.



3-rasm. Bino fasadi chizmsi.

Binoning fasadi. Fasad plan va qirqimlarga asosan chiziladi (3-rasm). Fasadning uzunligi, deraza va boshqa elementlarning eni qavatlarning planlaridan, deraza, eshik, karniz, sokol, ayvon va boshqa elementlarning balandligi binoning qirqimidan olinadi. Yirik blok yoki paneldan qurilgan binolarda blok va panelarning ulangan joylari (choklari) chiziladi.

§1.3. Binoning konstruktiv elementlari va sxemalari


Bino yoki inshootning alohida mustaqil qismlariga konstruktiv elementlar (poydevor, devorlar, to'siqlar, sokol yopiqlar, to'sinlar, zina marshlari, deraza yoki eshik bloklari va boshqalar) deb ataladi (4-rasm). Binoning yerosti qismi poydevor (1) hisoblanib, u binodan tushadigan hamma kuchni asosga o'tkazib yuborish uchun xizmat qiladi. Agar hamma devorning perimetri bo'ylab tutash ishlangan poydevor bo'lsa, u tasmasimon poydevor deyiladi.

Ba'zan poydevorlar alohida ko'rinishda bajarilib, ularning oralig'iga maxsus temir-beton konstruksiyalar qo'yib ketiladi va ularning ustiga devor g'ishti teriladi.

Alohida tayanchlar ostiga kvadrat va silindrsimon kesimli maxsus temir-beton konstruksiyalar qo'yildi.

Otmostka (2) atmosfera yog'ingarchiliklarini bino devorlariga yaqinlashtirmaslik-chetga ketkazish uchun xizmat qiladi.

Sokol (3) tashqi devorning pastki qismi bo'lib, u bevosita poydevorda yotadi va devorlarni atmosfera namligi va shikastlanishlardan saqlaydi.



4- rasm. Binoning konstruktiv elementlari.

Bino devorlari (4) - 3 qismiga (yuk ko'taradigan, o'z-o'zini ko'taradigan va osma) bo'linadi. Vazifasi va joylashishiga qarab, tashqi va ichki devorlarga bo'linadi (tashqi devorlar - binoni tashqi muhitdan ajratadi va uni atmosfera ta'siridan saqlaydi; ichki devorlar- har bir xonani ikkinchi xonadan ajratadi). Uning pastki qismi *sokol'* deyiladi. Devorlar toshlardan, g'ishtlardan, mayda yoki yirik bloklardan teriladi. Bir ikki qavatli binolar tashqi devorlarini qalinligi ikki g'isht, ichki devorlarniki esa bir yarim g'isht qalinligida bo'ladi. Sanoat binolarida devorlar o'miga temir-beton ustunlar o'matiladi.

Orayopma (6) binoni balandligi bo'yicha qavatlarga va yuqorigi qavatni chordoqdan ajratish uchun xizmat qiladi. Birinchi xolda uni - qavatalararo, ikkinchi xolda esa – chordoq yopilmasi deyishadi.

Pardevor (7) binodagi yondosh xonalarni bir-biridan ajratib turadigan ichki to'suvchi konstruksiyadir.

Stropil (8) — tomning yuk ko'taradigan konstruksiyasi bo'lib, u devorlar va ichki tayanchlarga tayanadigan bloklardan iborat. Katta bo'limgan binolarda yog'och (tirgovuchli) tayanchli stropil ishlataladi. Kichik qurilish xonalarida yog'och, metall yoki temir-beton sterjenlardan ishlangan stropil fermalar ishlataladi.

Tom yopmasi (9) — bino tomining ustki suv o'tkazmaydigan qatlami.

Tom (13) — bino xonalarini ustki tomondan tashqi muhitdan ajratadigan va ularni yog'ingarchilikdan saqlaydigan muhim konstruktiv qism.

Mauerlat (14) — yog'och to'sin bo'lib, binoning tashqi devoriga yetqiziladi; to'sinlarga stropil oyoqlari tayanadi.

O'yiq (proyom) — deraza, eshik, darvoza o'rnatish yoki boshqa maqsadlar uchun mo'ljallab qoldirilgan bo'sh o'rinni.

Deraza bloki — deraza o'mini deraza kesakisi va tavaqasi bilan to'ldiruvchi konstruktiv qismi.

Eshik bloki — eshik o'mini eshik kesakisi bilan to'ldiradigan qismi.

Zina katagi — kapital devorlar bilan ajratilgan zina xonasi.

Zina marshi (16) — zinaning pog'onali og'ma qismi bo'lib, bir marshda 18 tadan ortiq pog'ona bo'lmasligi kerak.

Kosourlar (17) — maydoncha tayanib turadigan og'ma (temir- beton yoki po'lat) balkalar bo'lib, ularga zina pog'onalari o'rnatiladi.

Zina maydonchasi (18) zinaning marshlar orasidagi gorizontal elementi bo'lib, asosiy zina maydonchalari qavatlar sathidagi maydoncha va bir marshdan ikkinchisiga o'tish uchun mo'ljallangan oraliq maydonchalarga bo'linadi.

Yirik blokli binolarda tashqi va ichki devorlar derazalar orasidagi va kashaklarning yirik bloklaridan tashkil topgan bo'lib, bu bloklarga yopma va tom yuklamasi tushadi.

§1.4. Qurilishda o'lchamlarning modullik koordinatsiyasi

Ommaviy qurilishlarda amalda o'zini oqlagan bino qismlarini zavodlarda tayyorlab, ya'ni industrial metodlarni qo'llab, so'ngra ulami qurilish maydonlariga etkazib tasdiqlangan loyixaga asosan yig`ilsa binolarni qurish ishlari tezlashadi va pishiq chiqadi.

Detallar va konstruktsiyalarni zavod sharoyitida tayyorlaganda ularning shakli va o'lchamlarini doymiy ravishda saqlab turish talab etiladi. Buning uchun ularni standartlashtirish va tiplashtirish (ma'lum qismlarni bir turga keltirish) zarur bo'ladi.

Ommaviy qurilishlarda ko'p marta foydalanish uchun tavsiya qilingan, binoning texnika jixatidan sifati va iqtisodiy tejamli detallarini saralab olishga **tiplashtirish** deyiladi.

Namuna sifatida qabul qilingan eng mukammal industrial detallar **standartlashtirish** deyiladi. Zavoddan tayyorlanib chiqayotgan detallarning shakli, o'lchamlari va sifati namunaning shakli o'lchamlari va sifatiga qat'iy ravishda mos kelishi zarur.

Qurilishga oid buyumlar va konstruktsiyalarni ishlab chiqarishni loyixalashda, shuningdek ularni tiplashtirish va standartlashtirishda - **modul koordinatsiyasiga** asoslanadi.

Qurilish buyumlari va konstruktsiyalarni ishlab chiqarishni loyixalashda shuningdek ularni tiplashtirish va standartlashtirishda o'lchamlarning **modullik koordinatsiyasiga** asoslanadi. Uning asosiy qoidalarini ST SEV 1001-78 "Qurilishdagi o'lchamlarning modullik koordinatsiyasi. Asosiy qoidalar"da keltirilgan. U modul bazasiga tayanib, bino va inshootlar, qurilish buyumlari va aslaxalari, binoning konstruktiv elementlari, xajmli-rejalashtirish va konstruktiv elementlarining o'lchamlarini koordinatsiyalash qoidalarini yig`indisidir.

Xajmli-rejaga oid element deb bino xajmining - oraliq, qadam va qavatning balandligi bilan xarakterlanuvchi bir qismiga aytildi.

Rejaga oid element deyilganda xajmli-rejalashtirish elementining gorizontal proektsiyasi tushuniladi.

Qavatning balandligi - shu qavat polining satxidan undan keyingi yuqorida joylashgan qavat polining satxigacha bo'lgan balandlik bilan aniqlanadi.

Eng yuqorigi qavatning balandligi ham xuddi shunday anqlanadi, faqat chordoq yopmasining qalinligi qavatlararo yopmaning qalinligiga baravar deb hisoblanadi.

Bir qavatli sanoat binosining balandligi pol satxidan tayanchlarda turgan ko'taruvchi konstruktsiyaning pastki yuzasigacha bo'lgan masofa bilan aniqlanadi.

Fazo kengligidagi binoning xajmli-rejalahtirilgan elementlarining joylashishi - modulli tekisliklarning modulli uch o'lchamli fazoviy koordinatsiya tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Modulli uch o'lchamli fazoviy koordinatsiya tizimi to'g'ri burchakli koordinatsiya tizimini taqozo qiladi.

Bu tekisliklar orasidagi masofalar berilgan asosiy yoki ishlab chiqarish moduliga karralanib aniqlanadi. Modulli tekisliklarining o'zaro kesishuv chizig'i modulli koordinatsiyalar o'qlari vazifasini o'taydi. Bu o'qlar planda binoning asosiy ko'taruvchi konstruktsiyalari bo'yicha o'tkaziladi. Koordinatsiyalar o'qlaridan qurilishda bino uchun ajratilgan er maydonida bino planini belgilash vaqtida foydalaniladi.

Planda koordinatsiyalar o'qlarining orasidagi masofa - qadam deb ataladi. Qadam tushunchasi uzunasiga, bo'ylama yoki ko'ndalang yo'nalishlar bo'yicha xam qo'llanila berishi mumkin.

Ochiq bo'shliq yo'nalishiga mos koordinatsiyalar o'qlarining orasidagi masofa prolet(oraliq) deb ataladi. Prolet qadam bilan ustma-ust tushishi mumkin.

Alovida tayyorlangan mustaqil konstruktsiya, masalan, yopma panel, progon(tayanch ustuni), temir-beton rigel(ustun) yoki ferma(bir-biriga mustaxkam biriktirilgan ustun xarilardan iborat injeneriik inshoot)lar- binoning konstruktiv elementlari deyiladi. Konstruktiv elementlarning o'lchamlarini koordinatsiyalar va konstruktiv deb ikkiga bo'lishadi.

Bitta yo'nalishdagi koordinatsion fazo chegaralarini aniqlovchi modulli o'lcham - koordinatsiyali o'lcham (l_0) deyiladi

Konstruktiv o'lcham (l) deyilganda qurilish konstruksiyalarining yoki buyumining loyixada ko'rsatilgan o'lchami tushuniladi. Konstruktiv o'lcham koordinatsiya o'lchamidan katta yoki kichik bo'lishi mumkin.

Binoning xajmli-rejali va konstruktiv elementlari modul deb ataluvchi ma'lum kattalikka karrali bo'lishi lozim. Asosiy modulning kattaligi 100mm deb qabul qilingan va u M xarfi bilan belgilanadi. Qurilish chizmalarida mo'ljal o'lchamlarini millimetrlarda belgilaganda juda katta sonlar bilan ishlash ancha noqo'laylik keltirib chiqaradi. Shu sababdan modul tushunchasi kiritilgan. Modullarning boshqa xamma xosilaviy ya`ni yiriklashtirilgan va kasr turlari - asosiy modul bazasini butun yoki kasr sonlarga ko'paytirish orqali xosil qilinadi.

Yiriklashtirilgan modular (multimodular) quyidagi o'lchamlar bilan ifodalangan: 6000, 3000, 1500, 1200, 600, 300mm. Ularni mos ravishda quyidagicha belgilashadi: 60M, 30M, 15M, 12M, 6M, 3M.

Kasrli modular (submodular) – 50, 20, 5,2, va 1mm. Ular mos ravishda 1/2M, 1/5M, 1/10M, 1/20M, 1/50M, 1/100M deb belgilanadi.

Yiriklashtirilgan modular bino elementlarining qadamini tayinlaganda qo'llaniladi. Kasrli modular esa kolonnalar, to'sinlar (balkalar), plitalar va x.k., shuningdek zazorlar, choklar, plita va listovoy materiallarning qalinligini tayinlaganda foydalaniladi.

§1.5. «Arxitektura qurilish chizmachiligi» fanidan talabalar bajarishlari lozim bo'lgan grafik ishlari mazmuni.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishida taqsil olayotgan talabalar fan bo'yicha bilimlarini ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, grafik ishlarni bajarishda hamda o'quv adabiyotlardan mustaqil ravishda foydalangan holda o'z ustida ishlash orqali egallaydi. Talabalar ushbu vazifalarni bajarishlari uchun o'qituvchi talabaga turli o'quv adabiyotlarni tavsija qiladi, yo'nalish ko'rsatadi va maslaxat beradi. Berilgan vazifalarni bajarish orqali talaba fan yuzasidan talab darajasidagi bilimga ega bo'ladi.

«Arxitektura qurilish chizmachiligi» fani bo'yicha nazariy va amaliy bilimga ega bo'lish uchun semestr davomida bajariladigan vazifalari turli ko'rinishda

beriladi. Masalan, grafik topshiriq, savol-javob va test savollariga javob berish kabi bilimini tekshirishning turli usullaridan foydalaniladi.

Dastlabki bosqichda «Arxitektura qurilish chizmachiligi» fani yuzasidan grafik topshiriq beriladi. Berilgan grafik topshiriqni talaba semestr davomida bajaradi. Har bir talaba uchun alohida variant, grafik vazifalarni qanday bajarish kerakligiga oid namuna va uning tushuntirish matni keltirilib o'tilgan. Grafik vazifa bajarish orqali talabaning nazariy, amaliy bilimlari va grafik savodxonligi mustahkamlanadi.

Bajargan grafik ishlari bo'yicha fan yuzasidan nazariy bilimini mustahkamlash va tekshirish uchun savollar beriladi. Buning uchun o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ravishda shug'ullanadi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib savollarga berilayotgan javoblar mazmuni chizmalar orqali boyitiladi.

Uchinchchi bosqichda «Arxitektura qurilish chizmachiligi» oid test savollari beriladi. Test savollariga javob berish orqali talaba yuqoridagi bosqichda egallagan bilimlari sifatini tekshirish va ularni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Quyida semestr davomida bajariladigan vazifalar mazmuni keltirilgan (I - jadval).

Talabalarning “Arxitektura - qurilish chizmachiligi” bo'yicha bajarishi lozim bo'lgan grafik ishlar mazmuni

I - jadval

No	Bajariladigan grafik vazifalar mazmuni	Ball	Format	JN+mt
JB – 50 ball				
1.	Bino elementlari, sanitariya-texnika jixozlarining shartli belgilari tadbig'i.	5		5
2.	Tom nishab tekisligininig kesishish chizig'i aniqlansin.	5		5
3.	Binoning plani.	5		5+5
4.	Binoning fasadi.	5		5
5.	Binoning qirqimi.	5		5
6.	Binoning konstruktiv elementlari. Konstruktsiyalar (yog'och va temir).	10		10
7.	Bosh plan.	5		5+5

II. BOB. QURILISH CHIZMACHILIGIDAN GRAFIK ISHLAR UCHUN METODIK TAVSIYALAR

§2.1. Qurilish chizmachiligidan grafik ishlar uchun metodik ishlantma hamda varintlar to'plami.


«Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» ta'llim yo'nalishida tahlil olayotgan talaba arxitektura qurilish chizmachiligi fani bo'yicha bilimlarini o'quv jarayoni vaqtida, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda hamda grafik vazifalarni bajarish orqali kerakli bilimlarni egallaydilar.

Talabalar ushbu vazifalarni bajarishlari uchun turli o'quv va metodik adabiyotlardan foydalanadi hamda berilgan vazifalarni bajaradi va reyting ball to'playdi. Semestr davomida joriy nazorat, mustaqil ish va oraliq nazoratlarni bajarish orqali talaba fan yuzasidan talab darajasidagi bilimga ega bo'ladi.

«Arxitektura qurilish chizmachiligi» fanidan grafik vazifalar har bir talaba uchun alohida variant qilib beriladi. Har bir grafik vazifani qanday bajarilish kerakligiga oid namuna berilgan. Grafik vazifa bajarish orqali talabaning nazariy, amaliy bilimlari va grafik savodxonligi mustahkamlanadi.







Quyida grafik ishlar uchun namuna hamda variantlar to'plami berilgan.

*Bino chizmalarini chizishda quyidagi jadvallarda keltirilgan shartli
belgilardan foydalaniladi:*










17
926 287



Deraza va eshiklarning shartli grafik tasvirlari

Nomi	Belgilanishi
1. Zakrovsiz bir qavatlari deraza o'rni planda va qirqimda	
2. Zakrovsiz ikki qavatlari deraza o'rni planda va qirqimda	
3. Zakrovsiz dereza o'rni planda va qirqimda	
4. Vertikal kesakiga o'mnatiqidigan tashqariga va ichkariga ochilqidigan bir qavatlari oyna tavaqasi	
5. Yuqorisidan oshiq-moshiqqa o'mnatiqidigan bir qavatlari deraza tavaqasi, qirqimda va planda.	
6. Zakrovsiz bir tavaqali eshik o'rni planda.	
7. Zakrovsiz ikki tavaqali eshik (darvoza) o'rni planda	
8. Zakrovsiz bir tavaqasi o'ngga ochilqidigan eshik (darvoza) o'rni	
9. Zakrovsiz ikki tavaqali eshik (darvoza) o'rni	
10. Bir tavaqasi ikki tomonga ochilqidigan eshik (planda)	
11. Zakrovsiz qayirma eshik (darvoza) o'rni planda	
12. Surilqidigan (qaytma) eshik (darvoza) planda	
13. Aylanuvchi eshik planda	

III-jadval


Zina va panduslarning shartli belgilari

Nomi	Tasviri
1. Pandus: a - planda b - qirqimda	 
2. Zina planda: a - yukorigi marsh b - oraliq marsh v - pastki marsh	  
3. Zina qirqimda 1:100 va kichik masshtabda	
4. Zina qirqimda, konstruksiya elementlarini joylashtirish sxemasi uchun	

Nomi	Tasviri
1. Pardevor planda va qirqimda	
2. Yig'ma shitli pardevor planda	
3. Shaffor oynadan ishlangan pardevor (planda)	
4. Dushxona kabinasi planda	
5. Xojatxona kabinasi planda a-1:200 masshtabgacha b-1:200 masshtabdandan yirik	 
6. Davor orasiga ishlangan shkaf planda	




V-jadval

Bino devoridagi teshiklar va kanallarning shartli belgilari

Nomi	Tasviri
1. To'g'ri burchakli va yumaloq teshiklar planda	 
2. Dudburon planda	  
3. Gaz priborlaridan chiqadigan gazlarni tortish kanallari planda	  
4. Ventilyasiya kanali planda	  

VI-jadval

Isitish pechlari, maishiy plitalar, xolodilniklarning shartli grafikaviy va belgilari

Nomi	Planda va fasaddagi belgisi
1. Isitish pechi (umumiy belgisi)	 
2. Qattiq yoqilg'i yoqiladigan stasionar pech	 
3. Gaz yoqiladigan stasionarpech	 
4. Plita (umumiy belgisi)	 
5. Stasionar gaz plitasi	 
6. Xolodilnik	 

Sanitariya-texnika qurilmalarining shartli grafik belgilari

Nomi	Belgisi	
1. Rakovina		
2. Iovish baki:		
a - bir bo'limga mo'ljallangan oshxonabop yuvish baki		a)
b - ikki bo'limga mo'ljallangan oshxonabop yuvish baki		b)
3.Umivalnik:		
a - bir bo'limli		a)
b - ikki bo'limli		b)
4. Vanna		
5. Unitaz		
6. Pissuar		
7. Trap		
8. Suv ichiladigan fontancha		
9. Dush vannali		

Ko'tarish transport jihozlarining shartli belgilari

Nom'i	Tasvirlar	
	Planda	Qirqimda
1. Lift		
2. Temir yo'l izi		
3. Kran osti izi		
4. Monorels		
5. Osma kran		
6. Bir balkali ko'prik kran		
7. Ikki balkali ko'prik kran		
8. Kozlovoy kran		
9. Konsolli kran		

§2.2. Qurilishda ishlataladigan materiallarning qirqim va kesimlardagi shartli belgilari

Qurilishda ishlataladigan materiallar qurilish konstruktsiyalariga qarab tanlanib, bunda konstruktsiyalarning turli xil sharoitlarda ishlashi, fizik va kimiyoviy ta'sirlarga chidashi e'tioborga olinishi kerak, shuningdek, bunday konstruktsiyalarning zilzilaga qarshi chidamliligi nazarda tutiladi. Qurilish konstruktsiyalarda ishlataladigan asosiy materiallar quyidagilar: tuproq, tosh, shag'al, sement, sun'iy usulda ishlangan materiallar (beton, temir – beton, g'isht, shisha va sopol buyumlari, aralash qurilish materiallari va boshqalar), metall bo'limgan materiallar (yog'ochlar, polimerlar), metallar (cho'yan, alyuminiy, bronza va boshqalar), asbest – sementlar, fibrobetonlar, shishadan tayyorlangan va izolyatsion sun'iy tolalar, plastmassalar, rezinlar va boshqalar.

Chizmachilikda uchraydigan qirqim va kesimlarda inshootlar va mashinalar qanday materiallardan yasalishiga qarab shtrixovkalanadi. Qirqim va kesimlar, ko'pgina, berilgan tasvirda asosiy chiziq sifatida qabul qilingan yoki o'q chiziqqa nisbatan 45° li burchak ostida o'tkaziladigan parallel chiziqlar ko'rinishida shtrixlanadi.


Shtrixlar o'ng yoki chap tomonga yo'nalgan bo'lishi mumkin. Bir xil materialdan ishlangan detallarning shtrixlari chizmada qanday ko'rinishdan qat'i nazar, bir tomonga va qar xil zichlikda yo'nalgan bo'ladi.

Bir chizmaning o'zida bir xil chizilgan qirqim va kesim shtrixlari orasidagi masofa chizmada bir xil bo'lishi kerak. Ko'rsatilgan oraliq shtrixlanadigan satq yuzasining kata – kichikligiga qarab, 1 mm dan 10 mm gacha bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan qurilish materiallari qirqim va kesimlarning shartli belgilari (IX - jadvalda), namuna (5 - shaklda).


IX –jadval

<i>grunt</i>			
<i>chegarasini ajratib ko'satish zarur holda ishlataladi</i>		<i>binokor g'ishtlar</i>	
<i>DVP DSP</i>		<i>loy</i>	
<i>qattiq eritma va metal</i>		<i>metalmas materiallar</i>	
<i>shisha va boshqa hər xil shaffof material</i>		<i>armaturali beton</i>	
<i>har xil materialdagı tor vata, shishali vata</i>		<i>suyuqlik</i>	
<i>yog'och</i>		<i>tolalarga ko'ndalang qirqilgan yog'och</i>	
<i>faner</i>		<i>armaturasiz beton</i>	
		<i>qum, asbessement gips maxsulot – lari shtukaturka</i>	


Qurilish materiallarining shartli belgisini ishlatalish joylari




5 - shakl



2-variant




3-variant
Karniz qirqimi




Poydevor qirqimi

4-variant




Poydevor qirqimi


5-variant




Trubanining kundalang qirqimi



To'siqning ko'ndalang qirqimi




8-variant




9-variant

Poydevor qirqimi




10-variant


Poydevor qirqimi



11-variant Karniz qirqimi





12-variant Poydevor qirqimi




Tom nishablik tekisligining kesishgan chizig'ini aniqlash

Tomning planini tuzishda xar birini alohida to'rtburchaklikka ajratiladi. Avval, katta to'rtburchaklik, so'ngra, kichik to'rtburchaklik uchlarida gorizontal chiziqqa nisbatan 45° li chiziq (burchaklar 90° dan farqli bo'lsa bisektrissa) chiqarib tomning plani tuziladi. 6 – shaklda tom planning tuzilishi ko'rsatilgan.




6 - shakl


1-variant




2-variant




3-variant




4-variant




5-variant




6-variant




7-variant




8-variant




9-variant




10-variant




11-variant




12-variant




13-variant




14-variant




15-variant




16-variant




17-variant




18-variant




19-variant




20-variant




21-variant




22-variant



23-variant



24-variant



Bino planini chizish tartibi

Bino plani quyidagi tartibda chiziladi: bo'ylama va ko'ndalang koordinata o'qlari o'tkaziladi (7 - rasm, a); barcha tashqi va ichki devorlar, pardevor va ustunlar chiziladi (7 - rasm, b), tashqi va ichki devorlarda, hamma pardevorlarda deraza va eshik o'rirlari ajratiladi; eshiklarning ochilishi shartli ravishda ko'rsatiladi; sanitariya-texnika jihozlari chiziladi va kerakli chiqarish hamda o'lcham chiziqlari qo'yiladi (7 - rasm, c).

Chizmaga kerakli o'lchamlar qo'yiladi, tegishli yozuvlar bajariladi va ingichka chiziqda chizilgan chizma tekshirilib, so'ngra chizma ustidan qalam yurgiziladi. Chizmadagi qirqim va kesim konturlari asosiy tutash chiziqlar bilan ajratib ko'rsatiladi, boshqa chiziqlar esa ingichka tutash chiziqlar bilan chiziladi (7 - rasm, d).

Bino fasadini chizish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:


- koordinatsiya o'qlari o'tkaziladi, binoning umumiy konturi va agar binoning turtib chiqqan qismlari bo'lsa, ulaming ham konturlari chiziladi (8- rasm, a);
- fasadning plan va qirqimga mos kelishi tekshirilgach, chiziq ustidan qalam yurgizib chiqiladi;
- deraza va eshik o'rirlari, balkonlar, kirish joylarining ustidagi soyabonlar plitasi, karnizlar va fasadning boshqa arxitektura elementlari chiziladi (8- rasm, b);
- deraza tavaqalari, eshiklar, balkon to'siqlari, tomdagi ventilatsiya va tutun trubalari chiziladi, balandlik belgilari qo'yiladi (8- rasm, c);
- panelli yoki yirik blokli binolar fasadjda panellar yoki bloklar orasidagi choklar chizib ko'rsatiladi (8- rasm, d).

Bino qirqimini chizish tartibi


Qirqimda barcha yashashlar ingichka chiziq bilan quyidagi tartibda chiziladi:

- devor asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalari va ustunlarining vertikal o'qlari o'tkaziladi (9- rasm, a);


- tashqi va ichki devor, pardevor konstruksiyalari, qavatlararo va chordoq yopmalarining hamda tom o'rkachi balandliklari ingichka chiziq bilan chiziladi (9-rasm, b);
- karniz sokolining devordan oldinga chiqib turgan qismlari va tom nishabi chiziladi;
- tashqi va ichki devorlar, pardevorlar, deraza hamda eshik o'rinnari va boshqa elementlar belgilanadi;
- o'lcham va chiqarish chiziqlari, koordanatsion o'qlari markalash doirachalari, balandlik belgilarini qo'yish uchun tokchalar chiziladi;
- kesimlar uzil-kesil ustidan yurgizib chiqiladi, balandlik belgilari va o'lchamlar qo'yiladi (9- rasm, d).



7 - rasm. Bino planini chizish tartibi.




8-rasm. Bino fasadini chizish tartibi.




9-rasm. Bino qirqimini chizish tartibi.

Aloqachilar uyu




Мемронкодар

Fasad 1-4



Zaryad qılış stansiyası




3-yariant

Gara]


Fasad 1-4

7-variant

Qırqım 1-1




5-variant




Texnika ijodkorlari uyi

Fasad 1-4




6 - varianti




Mexmonxonha 60 o'rini

Fasad 1-4




Qırqım 1-1

B - variant



II- qavat planı şəxması




Macchtab




9 - variant

Qirqim 1-1




I - qavat plani sxemasi




Bolalar bog'chasi

Fasad 1-6




Bolalar bog'chasi

Fasad 1-6




Qırqım 1-1




12 variant!

Olimpiad 1-1




II-qavat plani sistemsi



Masshab


Maxmonxona

Fasad 1-4




Mərmməndəzə 60 o'rnili

Fasad 1-4




I - qavat planı sistemi:




13-variant

Oraqm 1-1



